



Zukhra TURAYEVA,

Independent researcher at TDPU of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Email: zukhra.turayeva.94@list.ru

Based on the review of TSPU, associate professor, PhD N.Axmedova

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING STUDENTS' DISCURSIVE COMPETENCE

Annotation

This article analyzes the essence and origins of discursive competence. It also presents the principles of assessment of discursive competence presented by the Council of Europe and examples of exercises that form various abilities used to develop this competence. It also presents the changes and innovations in the language teaching process that have arisen as a result of this competence.

Keywords: discourse, discursive competence, communicative competence, assessment, extralinguistic tools, critical thinking, content-based learning, culture and discourse.

O'QUVCHILARNING DISKURSIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada diskursiv kompetensiyaning mohiyati hamda kelib chiqishi tahlil qilinadi. Shuningdek, Yevropa kengashi tomonidan taqdim qilingan diskursiv kompetensiyaning baholanish tamoyillari hamda mazkur kompetensiyani rivojlantirish uchun qo'llanuvchi turli qobilyatlarni shakllantiruvchi mashqlar namunasi berilgan. Shuningdek, mazkur kompetensiyaning natijasida yuzaga chiqqan til o'qitish jarayonidagi o'zgarishlar hamda innovatsiyalar ham taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: diskurs, diskursiv kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, baholash, ekstralingvistik vositalar, tanqidiy fikrlash, kontentga asoslanuvchi o'qitish, madaniyat va diskurs.

ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ДИСКУРСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье анализируются сущность и происхождение дискурсивной компетенции. Также представлены принципы оценки дискурсивной компетенции, предложенные Советом Европы, и примеры упражнений, формирующих различные навыки, используемые для развития этой компетенции. Кроме того, рассматриваются изменения и нововведения в процессе обучения языку, возникшие в результате развития этой компетенции.

Ключевые слова: дискурс, дискурсивная компетенция, коммуникативная компетенция, оценка, экстралингвистические инструменты, критическое мышление, обучение на основе содержания, культура и дискурс.

Bugungi kunda texnologiya sohasining jadal rivojlanishi hamda ta'lim sohasida uning kirib kelishi bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlar ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Shuningdek, mazkur masala tilga turlicha prizma orqali qarashni va uning qabul qilinish jarayonida inson omilining o'rnini e'tibor markaziga qo'ydi. Xususan, diskurs tushunchasining jadal ravishda rivojlanishi va turli sohalarda keng ko'lamda qo'llanishi mazkur o'zgarishlarning yaqqol namunasidir.

Dastlab, e'tiborimizni diskurs tushunchasiga qaratsak. Tilshunoslik ribojlanish bosqichida yangi antropotsentrik paradigmaga o'tishi uning tadqiqotlarida inson omilini markaziy o'ringa qo'yishni taqazo qildi. Endilikda tilni yaxlit qoidalar tizimi emas, balki inson falsafa hamda mental jarayonlari bilan aloqador hodisa deb qarash boshlandi. Diskurs tushunchasining faol kirib kelishi Zelig Haris nomi bilan bog'liq bo'lib, u diskurs tahlili tushunchasini ilgari surgan maqolasi asosiy manba hisoblanadi. Keyinchalik mazkur tushunchaning tilshunoslikka aloqador bosh sohalari bilan, xususan til o'qitish, bog'lanishi hamda keng yoyilishi M. Fokolt va E. Benveniste nomlari bilan bog'liq. Diskurs mulqotning jarayonidagi hamda makon-zamon bilan bog'langan ko'rinishi bo'lib, insonning dunyoni qabul qilish jarayonida va ma'lumotlarni qabul qilish, saqlash hamda tushunish jarayonida ishtirok etuvchi tildan tashqari bo'lgan omillarni ham hisobga oladi.

Endi esa mazkur tushunchaning til o'qitish shasidagi ahamiyatiga to'xtalsak. Til o'rgatish jarayonida diskursga vaziyat yoki kontekst sifatida qarash mavjud. Zero, nutq jarayonini aks etishida mazkur qarash o'rinlidir. Shuningdek, diskursiv kompetensiya tushunchasi uning mantiqiy yondosh tushunchasi bo'lib, turli xil nutqni tuzish va uni turli vaziyatlarga moslashtirish qobiliyatiga ishora qiladi. Mazkur qobiliyat bugungi kunda faol xalqaro aloqalar sababli ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Talabalarning diskurs kompetensiyasi deganda ulardagi aniq bilimlar tizimi hamda ko'nikmalari jamlanmasi nazarda tutiladi. Mazkur bilim va ko'nikmalar so'zlovchining kommunikativ maqsadga erishishi uchun muhim omillar hisoblanadi. Shu o'rinda diskurs, nutq aktlari va aloqa tushunchalarini bir-biridan farqlash lozimdir. Diskursiv ko'nikmalar va nutq qobiliyatlari o'rtasidagi farq nutq qobiliyatlarining maqsadi til ko'nikmalarini boshqarishda aniq kommunikativ vazifalarni bajarishi bilan izohlanadi. Nutq qobiliyatlari gapirish, yozish, o'qiy olish bo'lsa, diskurs ekstralingvistik omillarni ham qamrab olganligi uchun mazkur qobiliyatlardan ko'ra kengroq tushunchadir.

Chomskiy tabiri bilan aytganda "kompetentlik" "lingvistik kompetensiya"ga ishora qiladi. Bir nechta kichik kompetensiyalardan tashkil topgan uyushgan bilimlar, fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va leksik komponentlar demakdir (Belinchón, Igoa y Rivière) 1994: 261-262). Biroq, 70-yillarning boshlarida antropolog Dell Xayms

(1972) o'zining madaniyat, jamiyat va til munosabatlari bo'yicha tadqiqotlari etnografik natijasi sifatida "kommunikativ kompetensiya" tushunchasini kiritadi.

Peres Martin (1996: 316-322) lingvistik kompetensiyadan kommunikativ kompetensiyaga o'tishni o'rganadi. Bu farq "til qoidalari va shakllari haqidagi" bilimlar va insonga o'ziga xoslik beradigan funktsional va interaktiv muloqot qilish bilimlari o'rtasidagi farqni ta'kidlashga qaratilgan edi (Pérez Martin, o'sha yerda: 316). Shu ma'noda, kommunikativ kompetensiya tilni muayyan ijtimoiy kontekstda muloqot vositasi sifatida qo'llash imkonini beruvchi bilim sifatida talqin qilinadi. U suhbatdoshlar o'rtasida ma'nolarni o'zaro kelishish va anglash jarayoniga asoslangan dinamik tushuncha bo'lib, yozma hamda og'zaki muloqot shakllariga birdek tatbiq etilishi mumkin.

Diskurs kompetensiyasi chet tillarini o'qitishda alohida maqsad sifatida faqat kommunikativ kompetensiya bir necha mayda kompetensiyalarga ajratilgandan keyingina shakllandi. Biroq kommunikativ kompetensiyaning tarkibi borasida umumiy qarash mavjud emas. Masalan, Jon Munbi (1978) kommunikativ kompetensiyani to'rtta mustaqil element asosida izohlaydi:

"lingvistik kodlash"; "sotsiokultural yo'nalganlik"; "lingvistik bilimning sotsiosementik asosi"; "diskurs darajasidagi faoliyat".

Kommunikativ kompetensiyaning eng muhim modellaridan biri sifatida M. Kanale va M. Swein (1980) ushbu tushunchani rivojlantirib, kommunikativ kompetensiyaning to'rtta asosiy jihatini ajratib ko'rsatganlar:

a. Grammatik yoki lingvistik kompetensiya — lug'at boyligi, sintaksis va semantika haqidagi bilimlarni, ya'ni til kodlarini mukammal egallashni o'z ichiga oladi.

b. Sotsiolingvistik kompetensiya — muloqotning kontekstga mos ravishda tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, bunda suhbat ishtirokchilari hamda o'zaro muloqot qoidalari hisobga olinadi.

c. Strategik kompetensiya — samarali muloqotni ta'minlash uchun qo'llanadigan strategiyalar majmui bo'lib, ayniqsa kommunikatsiyada uzilish yoki tushunmovchilik yuzaga kelganda ishga tushadi. Bu grammatik va sotsiolingvistik strategiyalarni ham qamrab oladi.

d. Diskurs kompetensiyasi — gap va nutq birliklarining o'zaro bog'liqligi hamda mazmuniy yaxlitligini, ya'ni kohezion va koherentlikni ta'minlash bilan bog'liq kompetensiyadir.

Biz mazkur maqolamizda aynan ushbu kompetensiyaning ahamiyatiga e'tibor qaratamiz. G. Vidovson o'zining 1978-yilda chop etilgan "Teaching Language as Communication" nomli mashhur asarida "diskursdan diskursga" (discourse-to-discourse) tamoyilini ilgari suradi. Quyidagi nisbatan uzun iqtibos esa uning ushbu g'oya orqali nimani nazarda tutganini umumlashtirib beradi va diskursiv kompetensiyaning rivojlantirilishi uchun muhim manba hisoblanadi:

"Bizning asosiy maqsadimiz o'quvchini u yoki bu shaklda diskurs bilan ishlay olishga o'rgatish ekan, barcha mashqlar uchun aynan diskurs namunalarini tayanch nuqta bo'lib xizmat qilishi lozim, degan fikr mantiqan to'g'ri ko'rinadi... O'quv birliklari va ular asosida tuziladigan topshiriqlar bir diskurs namunasiidan boshqasiga o'tish tamoyili asosida tashkil etilishi kerak. Birinchi diskurs namunasi o'qish uchun berilgan matn hisoblanadi. Ikkinchi diskurs namunasi esa o'quvchining o'zi tomonidan birinchi matnga tayangan holda yaratiladi. Ushbu ikki bosqich oralig'idagi barcha mashqlar o'quvchining matnini boshqariladigan tarzda anglashiga yordam berish hamda uning interpretatsiya qilish qobiliyatini reseptiv shakldagi o'qishdan produktiv shakldagi yozishga ko'chirish uchun xizmat qiladi.

Shunday qilib, har bir mashq o'quvchining birinchi diskurs namunasi bilan ikkinchisiga o'tish jarayonidagi samaradorligi bilan oqlanadi. Bu jarayon esa siklik xarakterga ega deb qaraladi: birinchi diskurs namunasi ustida ishlash ayni paytda o'quvchini ikkinchi diskursni yaratishga tayyorlash vazifasini ham bajaradi." (Henry G. Widdowson, 1978, p. 146) Til o'qituvchilari til darslari uchun qaysi turdagi diskurslar muhim ekanini aniqlashlari uchun, avvalo o'quvchilar kelajakda qanday kommunikativ vazifalarni bajarishlariga to'g'ri kelishini bilishlari zarur. Yevropa Kengashining "Common European Framework of Reference for Languages" (2001:54) nomli hujjatida ehtiyojlar tahlilining muhimligi alohida ta'kidlanib, "bu masalani amaliyotchi mutaxassislarining o'zlari hal qilishlari kerak" deb qayd etiladi.

Odatda kommunikativ faoliyatning to'rtta umumiy turi ajratiladi: ishlab chiqarish (production), qabul qilish (reception), o'zaro muloqot (interaction) va vositachilik (mediation) bilan bog'liq faoliyatlar.

Og'zaki produktiv faoliyatlarga quyidagilar kirishi mumkin (Council of Europe, o'sha manba, 58-bet): a) yozma matn ovoz chiqarib o'qish; b) yozma matn yoki vizual vositalarga tayangan holda nutq so'zlash; c) oldindan tayyorlangan rol ni ijro etish; d) spontan tarzda gapirish; e) qo'shiq kuylash. Yozma produktiv faoliyatlarga esa quyidagilar kiradi (o'sha manba, 61-bet): a) forma va so'rovnomalarni to'ldirish; b) maqolalar yozish; c) posterlar tayyorlash; d) hisobot yozish; e) qaydlar yozib borish; f) xabarni yozib olish; g) ijodiy yozuv bilan shug'ullanish; h) shaxsiy yoki rasmiy ish xatlarini yozish.

Diskurs kompetensiyasini baholash til o'qitish jarayonidagi eng murakkab jihatlardan biri hisoblanadi. Ushbu tushunchaning o'zi murakkab tarzda izohlanishi kabi, uni baholash ham o'qituvchidan o'quvchining tilni kommunikativ qo'llashiga nisbatan keng va yaxlit yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, dars jarayonlarida uzoq vaqt davomida ustun mavqega ega bo'lgan grammatika markazidagi yondashuv — ya'ni pedagogik maqsadlarning grammatika bilan bog'lanishi, darsliklarning grammatik talqini, sinfdagi grammatika o'qitilishi hamda grammatik baholash tizimi (hatto ular "kommunikativ" ko'rinishda bo'lsa ham) — diskurs kompetensiyasi bilan bog'liq yangi qarashlar bilan to'qnash kelmoqda.

Lobera (1996:392) ta'kidlaganidek, "chet tilini o'qitishdagi innovatsiyalar tobora ko'proq diskurs tushunchalariga asoslangan til modeli ta'sirida shakllanmoqda". Bundan tashqari, diskurs kompetensiyasini baholash o'qituvchilarga matnlar asosida tilning to'rtta asosiy ko'nikmasini haqiqiy va kompleks tarzda baholash imkonini beruvchi omil bo'lishi mumkin. Ta'lim tizimimizda chet tilini o'qitish borasida eng ko'p uchraydigan tanqidlardan biri ham aynan kundalik amaliyot hamda baholash jarayonlarida to'rtta ko'nikmaning nomutanosib ravishda qo'llanishi bilan bog'liqdir.

Biroq har qanday kompetensiyani baholash oson va to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan jarayon emas. Council of Europe "Common European Framework of Reference for Languages" asarida (2001:187) bu haqda quyidagi fikr bildiriladi:

"Afsuski, kompetensiyalarni hech qachon bevosita sinab ko'rib bo'lmaydi. Biz faqat turli faoliyat natijalari va nutqiy ko'rsatkichlarga tayana olamiz hamda ular asosida tilni egallash darajasi haqida umumiy xulosa chiqaramiz. Tilni bilish darajasi amalda qo'llanayotgan kompetensiya sifatida qaralishi mumkin. Shu ma'noda barcha testlar aslida faqat faoliyat natijasini baholaydi, biroq ushbu natijalar asosida yashirin kompetensiyalar haqida xulosa chiqarishga harakat qilinadi."

Demak, kompetensiyani o'lchash uch bosqichda amalga oshiriladi: avvalo faoliyat natijalari sinovdan o'tkaziladi, keyin tilni egallash darajasi aniqlanadi va nihoyat kompetensiya bilvosita tarzda baholanadi.

Xuddi shu holat diskurs kompetensiyasiga ham taalluqlidir. Ushbu kompetensiya bir qator amaliy tarkibiy

qismlarga ajratiladi va keyinchalik ular baholash mezonlari bilan bog'lanadi. "Common European Framework" (2001:124–125) diskurs kompetensiyasi uchun ana shunday ayrim tarkibiy qismlar hamda ularga mos baholash shkalalarini tavsiya etadi:

	FLEXIBILITY
C2	Shows great flexibility reformulating ideas in differing linguistic forms to give emphasis, to differentiate according to the situation, interlocutor, et., and to eliminate ambiguity.
C1	As B2+
B2	Can adjust what he/she says and the means of expressing it to the situation and the recipient and adopt a level of formality appropriate to the circumstances. Can adjust to the changes of direction, style and emphasis normally found in conversation. Can vary formulation of what he/she wants to say.
B1	Can adapt his/her expression to deal with less routine, even difficult, situations. Can exploit a wide range of simple language flexibly to express much of what he/she wants.
A2	Can adapt well rehearsed memorised simple phrases to particular circumstances through limited lexical substitution. Can expand learned phrases through simple recombinations of their elements.
A1	No descriptor available
	TURNTAKING
C2	As C1
C1	Can select a suitable phrase from a readily available range of discourse functions to preface his/her remarks appropriately in order to get the floor, or to gain time and keep the floor whilst thinking.
B2	Can intervene appropriately in discussion, exploiting appropriate language to do so. Can initiate, maintain and end discourse appropriately with effective turntaking. Can initiate discourse, take his/her turn when appropriate and end conversation when he/she needs to, though he/she may not always do this elegantly. Can use stock phrases (e.g. 'That's a difficult question to answer') to gain time and keep the turn whilst formulating what to say.
B1	Can intervene in a discussion on a familiar topic, using a suitable phrase to get the floor. Can initiate, maintain and close simple face-to-face conversation on topics that are familiar or of personal interest.
A2	Can use simple techniques to start, maintain, or end a short conversation. Can initiate, maintain and close simple, face-to-face conversation. Can ask for attention.
A1	No descriptor available
	THEMATIC DEVELOPMENT
C2	As C1
C1	Can give elaborate descriptions and narratives, integrating sub-themes, developing particular points and rounding off with an appropriate conclusion.
B2	Can develop a clear description or narrative, expanding and supporting his/her main points with relevant supporting detail and examples.
B1	Can reasonably fluently relate a straightforward narrative or description as a linear sequence of points.
A2	Can tell a story or describe something in a simple list of points.
A1	No descriptor available

Diskurs kompetensiyasining tivojlanish bosqichida turli yangiliklar hamda innovatsiyalar yuzaga chiqdi. Shulardan biri "content-based language teaching" – kontentga aloqador til o'rgatish tizimidir. Henry G. Widdowson (1978:16) o'rta ta'lim bosqichidagi o'quvchilar uchun qaysi "qo'llanish sohalari" eng mos kelishi mumkinligi haqida savol qo'yadi. Uning javobi esa juda aniq va sodda: "eng ehtimoliy sohalar maktab o'quv dasturidagi boshqa fanlarga oid sohalardir".

Henry G. Widdowsonning mazmunga yo'naltirilgan yondashuvi (content-based approach) yoki fan mazmuniga asoslangan yondashuvi zamonaviy til o'qitishdagi eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv diskurs kompetensiyasini, ayniqsa "maktab janrlari" bilan bog'liq holda o'rganishda muhim nazariy asos va tadqiqot yo'nalishini taqdim etadi.

Ulardan yana biri "critical thinking" – tanqidiy fikrlash. Alec Fisher (2001) "tanqidiy fikrlash" tushunchasiga berilgan asosiy ta'riflarni tahlil qilib, uning bevosita manbai sifatida John Deweyning "reflektiv fikrlash" g'oyasini ko'rsatadi. Amerikalik faylasuf John Dewey o'zining "Democracy and Education" (1916) asarining "Ta'limda tafakkur" ("Thinking in Education") deb nomlangan o'n ikkinchi bobida o'z metodining asosiy yo'nalishlarini bayon qiladi.

Oxirgisi "culture and discourse" - madaniyat va diskurs deb nomlanadi va contrastive rhetoric-kontrast ritorika ham

deyish mumkin. Kontrastiv ritorika til pedagogikasi doirasida yozuv va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi tadqiqot yo'nalishidir. Bugungi kunda, qariyb qirq yillik rivojlanish jarayonida duch kelgan ayrim qiyinchilik va tanqidlarga qaramay, u madaniyatlararo tadqiqotlarning eng qiziqarli va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

José Manuel Vez Jeremías (2002:18)ning ta'kidlashicha, hozirgi davrda kontrastiv ritorika sohasidagi tadqiqotlar tufayli kontrastiv lingvistika yana qayta jonlanish bosqichini boshdan kechirmoqda.

Xulosa. Diskurs kompetensiyasi kommunikativ kompetensiyaning til o'rganish jarayonida matn yaratish va matn bilan ishlashni qamrab oluvchi tarkibiy qismidir. U kohezion, koherentlik, janr va matn turlari kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, til o'qitishda to'rtta asosiy ko'nikmaning integratsiyasida muhim o'rin tutadi.

Mazkur kompetensiyani shakllantirish uchun Henry G. Widdowson tomonidan ilgari surilgan "diskursdan diskursga" modeli muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar o'quvchilar bir diskurs turidan boshqasiga o'tishda egallashi zarur bo'lgan matn turlari va topshiriqlarni yaxshi bilishlari kerak. Ana shu jarayonni bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlash uchun turli faoliyat va strategiyalar tavsiya etilgan.

Diskurs kompetensiyasini baholash bo'yicha ham ayrim mezon va usullar taklif etilgan bo'lib, ular orasida

portfolio eng maqbul vosita sifatida ko'rsatiladi. Chunki portfolio diskurs kompetensiyasini uzluksiz ravishda kuzatish va baholash imkonini beradigan o'qitish hamda nazorat shaklidir. Shuningdek, diskurs kompetensiyasi bilan bog'liq uch muhim jihat alohida ta'kidlanadi: u fan mazmuni, matnlar

va faoliyat turlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak; u argumentatsiya orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bilan aloqador bo'lishi zarur; u madaniyatga bog'liq hodisa hisoblanadi, buni esa kontrastiv ritorika tadqiqotlari keng ko'lamda isbotlagan.

ADABIYOTLAR

1. Belz & Thorne, 2006; Robert, 2010; Sysoyev, 2013; Sysoyev & Evstigneev, 2009, 2010, 2011; Warschauer & Kern, 2000
2. Bruce, I. (2008a). *Academic writing and genre: A systematic analysis*. London, UK: Continuum.
3. Bruce, I. (2008b). Cognitive genre structures in Methods sections of research articles: A corpus study. *Journal of English for Academic Purposes*, 7(1), 38-54. <http://dx.doi.org/10.1016/j.jeap.2007.12.001>
4. Canale, M. (1983). "From communicative competence to communicative language pedagogy". In Richards, J.C., & Schmidt, R. (ed.): *Language and Communication*. Harlow, Essex: Longman.
5. Canale, M. & Swain, M. (1980): "Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing". *Applied Linguistics*, 1, 1-47.
6. Connor, U. (1996): *Contrastive Rhetoric*. New York: Cambridge University Press. Council of Europe. (2001): *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Pérez Martín, M. C. (1996): "Linguistic and communicative competence". In McLaren, N. & Madrid, D. *A Handbook for TEFL*. Alcoy: Marfil.